# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

2026-YIL / IYUL / 7-SON, I-QISM



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul. I-qism*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G‘afforovna,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko‘nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o‘g‘li,** O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig‘i
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining o‘rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra’no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO‘LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O‘RNI ........ 12
Urakova Maxsad Xakimovna

QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI ........ 18
Yusupova Jamila Karamatdinovna

COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS ........ 21
Kholdorov Sardor Umarovich

O‘ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI ........ 28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o‘g‘li

O‘ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI ........ 33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА ........ 38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна

MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O‘ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI ........ 42
Muzaffarov Akmal Axmadovich

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ ........ 49
Ирматова Азиза Бахрамовна

OROL BO‘YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) ........ 56
Akramova Feruza

RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION ........ 68
Hao Xiaohui

HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA’MINLASHDA ILG‘OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI ........ 76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o‘g‘li

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI ........ 83
Inobatov Abror Boshlarovich

КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ ........ 92
Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович

АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ ........ 97
Ташмухамедова Карима Саматовна

СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ ........ 104
Тарават Абдул Салам

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI ........ 112
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH ........ 117
Permatov Ilxomjon Juraboyevich

O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH ........ 121
Inoyatova Gulnoz Kadamovna

BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA) ........ 125
Turabova Shodiya Anvarjon qizi

MHXSDA TUSHUM VA MOLIYAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH ........ 132
Eshonqulov Akmal Qudratovich

BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 138
Latipov Jahongir Shavkatovich

O'ZBEKISTONDA XUSUSIY TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TENDENSIYALARI ........ 144
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li

EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION USULLARNING SAMARADORLIGI ........ 150
Usmanova Gulida Valiyevna

BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI ........ 156
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI ........ 163
Sadikova Dildora Abdulla qizi

MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH EKOTIZIMINING FUNKSIONAL BOG'LIQLIGI ........ 167
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ОПЕРАЦИЯМИ ........ 172
Исмоилова Жасмина Ильхом кизи

SANOAT KLASTERLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INNOVATSION FAOLIYATGA TA'SIRI ........ 178
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich

XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI ........ 183
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna

BIOLOGIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI ........ 188
Babadjanov Akmal Shuxratovich

ZAMONAVIY JAMIYATDA AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI ........ 193
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li

O'ZBEKISTON KONTEKSTI: IQLIM O'ZGARISHI, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA MOSLASHTIRISH SIYOSATLARI ........ 198
Haydarov Ibrohimxon Abbosxon o'g'li

TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI VA BOJXONA NAZORATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ........ 202
Kilichov Nazar Bafoyevich

TA'LIM XIZMATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI ........ 208
Yusupova I.R.
OROLBO'YI HUDUDLARINING IJTIMOIYIQTISODIY SALOHIYATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA USTUVOR RIVOJLANISH YO'NALISHLARI ........ 212
Dosnazarov Kallibek Kalbayevich
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА ........ 222
Айтмуратов Кутлымурат Жалгасович
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR UCHUN KORPORATIV BOSHQARUV BO'YICHA IQTISODIY HAMKORLIK VA TARAQQIYOT TASHKILOTI (IHTT)NING YETAKCHI TAMOYILLARINI O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA JORIY ETISH YO'NALISHLARI ........ 227
Jumadullayeva Durdona Shuxrat qizi
TURIZM SOHASIDA KLASTERNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI ........ 233
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li
EKOLOGIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR TARKIBI ........ 240
Majidova Shaxnoza Rustam qizi
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH VA MUAMMOLI KREDITLAR MUAMMOSI: TAHLIL VA YECHIMLAR ........ 244
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich
AGROTADBIRKORLIKDA OMILLAR SARFI ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMINING OSHISHIGA TA'SIRINI HUDUDIY BAHOLASH ........ 248
Qurbonov Alisher Boboqulovich
ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL PROBLEMS IN THE IMPLEMENTATION OF INTERNAL STANDARDS IN AUDIT FIRMS OF UZBEKISTAN AND THEIR IMPACT ON THE QUALITY OF AUDIT SERVICES ........ 256
Kamola Bobonarova
XIZMAT KO'RSATISH KORXONA MENEJMENTIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI ........ 262
Zohidov Jamshid Botirxonovich
SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI ........ 267
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI VA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ........ 272
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich
MILLIY HUNARMANDCHILIK SOHASINI HUDUDIY RIVOJLANTIRISHNING INTEGRAL BOSHQARUV MODELI VA UNI BAHOLASH ........ 279
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li
O'ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL ........ 288
H.S. Bobojonov
OLIY TA'LIM TIZIMIGA XORIJIY INVESTITSIYALAR JALB QILISHNING USLUBIY ASOSLARI ........ 294
Mamanazarov A.A.
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOHIYATINI BOSHQARISH VA ISHLAB CHIQARISH XAVFSIZLIGI TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHATLARI ........ 299
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOHIYATINI BOSHQARISH VA ISHLAB CHIQARISH XAVFSIZLIGI TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHATLARI

**Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich**
**Shahrisabz davlat pedagogika instituti**
**Registrator ofisi boshlig'i, PhD**
**ORCID: 0009-0002-4643-0017**
**Email: gulmatovsunnatillo7@gmail.com**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish va ishlab chiqarish xavfsizligini ta'minlashning nazariy, metodologik hamda amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida ishlab chiqarish salohiyatining iqtisodiy mohiyati, uni shakllantiruvchi omillar va boshqaruv mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyati samaradorligini baholash uchun integral ishlab chiqarish salohiyati indeksi, ishlab chiqarish xavfsizligi darajasi koeffitsienti, resurslardan foydalanish samaradorligi indeksi hamda integratsiyalashgan samaradorlik indeksi taklif etilgan. 2020–2025-yillar davomida oziq-ovqat sanoati tarmog'ining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilinib, ishlab chiqarish salohiyati va xavfsizlik darajasining o'sishi korxonalar samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish va xavfsizlikni ta'minlashning integratsiyalashgan mexanizmini joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.
**Kalit so'zlar:** oziq-ovqat sanoati, ishlab chiqarish salohiyati, ishlab chiqarish xavfsizligi, ishlab chiqarish samaradorligi, resurslardan foydalanish, xavflarni boshqarish, iqtisodiy samaradorlik, innovatsion texnologiyalar, raqamli boshqaruv, mahsulot sifati, mehnat unumdorligi, raqobatbardoshlik.
**Аннотация.** В данной статье изучаются теоретические, методологические и практические аспекты управления производственным потенциалом и обеспечения безопасности производства на предприятиях пищевой промышленности. В ходе исследования была проанализирована экономическая сущность производственного потенциала, факторы, его формирующие, и механизмы управления. В ходе исследования для оценки эффективности деятельности предприятий пищевой промышленности были предложены интегральный показатель производственного потенциала, коэффициент уровня безопасности производства, индекс эффективности использования ресурсов и интегральный показатель результативности. В период 2020-2025 годов были проанализированы основные экономические показатели сети предприятий пищевой промышленности, и было определено, что рост производственного потенциала и уровня безопасности положительно скажется на эффективности предприятий. По результатам исследования были разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по внедрению комплексного механизма управления производственным потенциалом и обеспечению безопасности.
**Ключевые слова:** Пищевая промышленность, производственный потенциал, безопасность производства, эффективность производства, использование ресурсов, управление рисками, экономическая эффективность, инновационные технологии, цифровое управление, качество продукции, производительность труда, конкурентоспособность.
**Annotation.** In this article, the theoretical, methodological and practical aspects of managing the production potential and ensuring the safety of production at enterprises of the food industry are studied. During the study, the economic essence of the production potential, the factors that shape it and the mechanisms of management were analyzed. In the course of the research, an Integrated Production Potential Index, a coefficient of production safety level, an index of resource utilization efficiency and an integrated efficiency index were proposed to assess the effectiveness of the activities of food industry enterprises. During the period 2020-2025, the main economic indicators of the food industry network were analyzed and it was determined that the growth of production potential and safety levels will have a positive effect on the efficiency of enterprises. Based on the results of the study, scientifically based proposals and recommendations for the implementation of an integrated mechanism for managing production potential and ensuring safety have been developed.
**Keywords:** Food Industry, Production Potential, Production Safety, production efficiency, resource utilization, risk management, economic efficiency, innovation technologies, digital management, product quality, labor productivity, competitiveness.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan global oʻzgarishlar, aholi sonining barqaror oʻsishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi va oziq-ovqat mahsulotlariga boʻlgan talabning ortib borishi oziq-ovqat sanoatini iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda oziq-ovqat sanoati nafaqat aholini zarur isteʼmol mahsulotlari bilan taʼminlash, balki mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, import oʻrnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport salohiyatini kengaytirish va yangi ish oʻrinlari yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tarmoq korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini samarali boshqarish va ishlab chiqarish xavfsizligini taʼminlash iqtisodiy taraqqiyotning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro tajriba shuni koʻrsatmoqdaki, oziq-ovqat sanoatida yuqori natijalarga erishish faqatgina ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan emas, balki mavjud resurslardan samarali foydalanish, mahsulot sifati va xavfsizligini taʼminlash, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish hamda xavflarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini qoʻllash bilan belgilanadi. Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi sharoitida korxonalar oʻrtasidagi raqobatning kuchayishi ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirish va resurslardan foydalanishning optimal modellarini ishlab chiqishni talab etmoqda.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati koʻp qirrali iqtisodiy kategoriya boʻlib, u korxonaning mavjud ishlab chiqarish quvvatlari, asosiy vositalari, texnologik jihozlari, mehnat resurslari, xom ashyo taʼminoti, moliyaviy imkoniyatlari, innovatsion faolligi va boshqaruv samaradorligining yigʻindisi sifatida namoyon boʻladi. Ishlab chiqarish salohiyatining yuqori darajada shakllanganligi korxonaga bozor talablariga tez moslashish, mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash imkonini beradi. Shuning uchun ham mazkur kategoriyani boshqarishning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Soʻnggi yillarda sanoat korxonalari faoliyatiga raqamli texnologiyalarning keng kirib kelishi ishlab chiqarish salohiyatini boshqarishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Jumladan, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, sunʼiy intellekt elementlariga asoslangan tahlil vositalari, raqamli monitoring platformalari va “aqlli ishlab chiqarish” konsepsiyalarining joriy qilinishi resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq texnologiyalarning takomillashuvi bilan bir qatorda ishlab chiqarish jarayonlaridagi xavflar ham murakkablashib bormoqda. Bu esa ishlab chiqarish xavfsizligini taʼminlashning yangi yondashuvlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Oziq-ovqat sanoati boshqa sanoat tarmoqlaridan farqli ravishda inson salomatligi va hayoti bilan bevosita bogʻliq boʻlgan mahsulotlar ishlab chiqaradi. Shu sababli mazkur tarmoqda xavfsizlik masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga keladigan biologik, kimyoviy, fizik va texnologik xavflar mahsulot sifatiga, isteʼmolchilar salomatligiga hamda korxonaning iqtisodiy natijalariga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Masalan, sanitariya-gigiena talablarining buzilishi, texnologik rejimlarga rioya qilinmasligi, xom ashyo sifati ustidan nazoratning yetarli darajada tashkil etilmaganligi yoki xodimlarning malakasi pastligi mahsulot xavfsizligi bilan bogʻliq jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Shu bilan birga, oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish xavfsizligi tushunchasi faqat mahsulot xavfsizligi bilan cheklanib qolmaydi. U mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, ekologik xavfsizlik, yongʻin xavfsizligi, energiya taʼminoti barqarorligi va texnologik jarayonlarning uzluksizligini ham qamrab oladi. Shu jihatdan qaraganda, ishlab chiqarish xavfsizligini taʼminlash kompleks boshqaruv tizimini shakllantirishni talab qiladi. Bunday tizim xavflarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni oʻz ichiga olishi lozim.

Iqtisodiy adabiyotlarda ishlab chiqarish salohiyati va ishlab chiqarish xavfsizligi masalalari alohida oʻrganilgan boʻlsa-da, ularning oʻzaro taʼsiri va integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmini shakllantirish masalalari hali ham yetarli darajada tadqiq etilmagan. Amaliyot shuni koʻrsatmoqdaki, ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish xavfsizlik talablarini inobatga olmagan holda uzoq muddatli iqtisodiy samara bermaydi. Aksincha, xavfsizlikni taʼminlashga yoʻnaltirilgan xarajatlar va investitsiyalar korxonaning barqaror faoliyati, mahsulot sifati va bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli mazkur ikki yoʻnalishni yagona tizim sifatida tadqiq qilish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasida oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, mahalliy xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish boʻyicha keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning samaradorligi koʻp jihatdan korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatini toʻgʻri baholash, undan samarali foydalanish va xavfsiz ishlab chiqarish muhitini shakllantirishga bogʻliqdir. Ayniqsa, xalqaro standartlar asosida mahsulot sifati va xavfsizligini taʼminlash, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda innovatsion boshqaruv usullarini qoʻllash mamlakat oziq-ovqat sanoati korxonalarining xalqaro bozordagi raqobat pozitsiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Hozirgi global iqtisodiy rivojlanish sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash har bir davlatning strategik

vazifalaridan biri hisoblanadi. Dunyo aholisi sonining ortishi, oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning muntazam o‘sishi, iqlim o‘zgarishlari, energiya va xom ashyo resurslari bozorlaridagi beqarorlik oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini samarali tashkil etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Shu munosabat bilan oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish va ishlab chiqarish xavfsizligini ta’minlash masalalari iqtisodiy fan va amaliyotning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.

Oziq-ovqat sanoati milliy iqtisodiyotning aholi turmush darajasi, oziq-ovqat ta’minoti va iqtisodiy barqarorlik bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan muhim tarmoqlaridan hisoblanadi. Mazkur tarmoqning samarali faoliyat yuritishi aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, eksport hajmini oshirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish imkonini beradi. Shu sababli oziq-ovqat sanoati korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonalarning barqaror rivojlanishi ularning mavjud resurslardan qay darajada samarali foydalana olishi bilan belgilanadi. Ishlab chiqarish salohiyati korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari, asosiy vositalari, mehnat resurslari, innovatsion imkoniyatlari, boshqaruv salohiyati va moliyaviy resurslarining o‘zaro uyg‘unligini aks ettiruvchi murakkab iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Undan samarali foydalanish mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, xarajatlarni qisqartirish, mehnat unumdorligini oshirish va mahsulot raqobatbardoshligini ta’minlash imkonini beradi. Bu esa ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqariladigan mahsulotlar inson salomatligi va hayoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli ularning xavfsizligini ta’minlash ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Texnologik jarayonlarda yuzaga keladigan kamchiliklar, sanitariya-gigiena talablarining buzilishi, xom ashyo sifati ustidan nazoratning yetarli emasligi yoki inson omili bilan bog‘liq xatolar mahsulot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Natijada mahsulot xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelib, iste’molchilar salomatligiga zarar yetkazishi, korxona nufuzining pasayishi va iqtisodiy yo‘qotishlarga sabab bo‘lishi mumkin.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va sun’iy intellekt elementlarining sanoat sohasiga keng joriy etilishi ishlab chiqarish salohiyatini boshqarishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli monitoring, real vaqt rejimida ma’lumotlarni tahlil qilish, resurslar harakatini nazorat qilish va texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarish vositalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq mazkur texnologiyalarni amaliyotga joriy etish ulardan samarali foydalanishning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash va eksport salohiyatini kengaytirish davlat iqtisodiy siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi. Mamlakatda oziq-ovqat sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va mahsulotlar sifatini xalqaro talablar darajasiga yetkazish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu vazifalarning samarali ijrosi esa korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatini maqsadli boshqarish va ishlab chiqarish xavfsizligini yuqori darajada ta’minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish va ishlab chiqarish xavfsizligini ta’minlash masalalari asosan mustaqil tadqiqot ob’ektlari sifatida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, ularning o‘zaro bog‘liqligi va kompleks boshqaruv mexanizmini shakllantirish masalalari yetarlicha o‘rganilmagan. Vaholanki, ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish va xavfsizlikni ta’minlash o‘zaro bog‘liq jarayonlar hisoblanadi. Korxonada xavfsiz ishlab chiqarish muhitini shakllantirish ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligiga, mahsulot sifatiga va iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish va ishlab chiqarish xavfsizligini ta’minlashning nazariy hamda metodologik asoslarini chuqur tadqiq etish, ushbu sohada zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois mazkur mavzu iqtisodiyotning real sektorida raqobatbardoshlikni oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va tarmoqning barqaror rivojlanishini ta’minlash nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish masalasi xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda, avvalo, korxonaning raqobat ustunligini shakllantiruvchi ichki resurslar tizimi sifatida talqin qilinadi. M. Porter korxona raqobatbardoshligini “qiymat zanjiri” orqali izohlab, ishlab chiqarish, logistika, marketing va xizmat ko‘rsatish jarayonlarining o‘zaro muvofiqligi raqobat ustunligini ta’minlashini asoslagan [1]. Uning yondashuvi oziq-ovqat sanoati korxonalari uchun muhim, chunki mahsulot sifati va tannarxi faqat ishlab chiqarish sexida emas, balki xom ashyoni qabul

qilish, saqlash, qayta ishlash va yetkazib berish bosqichlarida ham shakllanadi. Biroq Porter yondashuvida ishlab chiqarish xavfsizligi alohida metodologik omil sifatida yetarlicha ochib berilmagan.

I. Ansoff strategik boshqaruv nazariyasida korxonaning ichki imkoniyatlari bilan tashqi muhit talablari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi [2]. Bu fikr oziq-ovqat sanoatida ayniqsa ahamiyatli, chunki ushbu tarmoqda talab, sanitariya me’yorlari, eksport standartlari va xom ashyo ta’minoti tez o‘zgaruvchan xususiyatga ega. Ammo Ansoff tadqiqotlarida ishlab chiqarish xavfsizligi ko‘proq umumiy strategik xavflar doirasida ko‘riladi, mahsulot xavfsizligi va texnologik xavflar esa chuqur ochilmaydi.

J. Barnining resurslarga asoslangan yondashuvi korxona ustunligi qimmatli, noyob, taqlid qilish qiyin va o‘rnini bosish mushkul resurslar orqali shakllanishini asoslaydi [3]. Bu nazariya ishlab chiqarish salohiyatini baholashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Oziq-ovqat sanoatida bunday resurslar qatoriga zamonaviy texnologiyalar, malakali personal, sifat nazorati tizimi, ishonchli xom ashyo bazasi va xalqaro standartlarga muvofiq boshqaruv tizimini kiritish mumkin. Shu bilan birga, mazkur yondashuvning cheklangan jihati shundaki, u resurslarning mavjudligini ko‘proq ta’kidlaydi, lekin ularni xavfsizlik talablari bilan integratsiyalashgan holda boshqarish masalasini to‘liq yoritmaydi.

D. Tis, G. Pizano va E. Shuen tomonidan ishlab chiqilgan dinamik qobiliyatlar nazariyasi korxonaning o‘z resurslarini tashqi muhit o‘zgarishlariga mos ravishda qayta shakllantirish qobiliyatini asoslaydi [4]. Bu yondashuv oziq-ovqat sanoati uchun juda muhim, chunki korxonalar xom ashyo narxi, logistika zanjirlari, sanitariya talablari va iste’molchilar talabi o‘zgarishiga tez moslasha olishi kerak. Tanqidiy jihatdan qaraganda, dinamik qobiliyatlar nazariyasi umumiy strategik moslashuvni yaxshi tushuntiradi, ammo ishlab chiqarish xavfsizligini o‘lchash uchun aniq ko‘rsatkichlar tizimini yetarlicha bermaydi.

Operatsion boshqaruv sohasida N. Slek, A. Brendon-Jons va N. Byordjess ishlab chiqarish jarayonlarini samaradorlik, sifat, tezkorlik, moslashuvchanlik va xarajatlar nuqtai nazaridan tahlil qiladi [5]. J.Xayzer, B. Render va Ch. Manson esa ishlab chiqarish boshqaruvini barqaror ta’minot zanjiri, sifat menejmenti va resurslardan samarali foydalanish bilan bog‘liq holda izohlaydi [6]. Ushbu yondashuvlar oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlari, texnologik jarayonlar va sifat nazoratini baholashda amaliy ahamiyatga ega. Biroq ularda oziq-ovqat xavfsizligi ko‘pincha sifat menejmentining tarkibiy qismi sifatida ko‘riladi, mustaqil xavfsizlik metodologiyasi sifatida emas.

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo‘yicha xalqaro adabiyotlarda HACCP va ISO 22000 tizimlari asosiy metodologik manba sifatida qaraladi. Codex Alimentarius hujjatlarida HACCP tizimi xavflarni aniqlash, kritik nazorat nuqtalarini belgilash, monitoring va tuzatuvchi choralarni amalga oshirishga qaratilgan profilaktik yondashuv sifatida bayon etilgan [7]. ISO 22000:2018 standarti esa oziq-ovqat zanjiridagi har qanday tashkilot uchun oziq-ovqat xavfsizligi menejmenti tizimi talablarini belgilaydi va HACCP tamoyillarini boshqaruv tizimi bilan birlashtiradi [8]. Bu manbalarning ustun jihati shundaki, ular mahsulot xavfsizligini ta’minlashda aniq bosqichlar va nazorat mexanizmlarini taklif etadi. Ammo ular asosan xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, ishlab chiqarish salohiyati, iqtisodiy samaradorlik va investitsion imkoniyatlar bilan bog‘liq masalalarni to‘liq qamrab olmaydi.

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida oziq-ovqat sanoati korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati, hududiy rivojlanishi va boshqaruv samaradorligi masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. I.Yu. Umarov O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish salohiyatini hududlar kesimida tahlil qilib, ishlab chiqarish hajmlari, ixtisoslashuv va resurslardan foydalanish darajasini baholagan [9]. Ushbu tadqiqotning ahamiyati shundaki, unda oziq-ovqat sanoati salohiyati makro va hududiy kesimda tahlil qilingan. Biroq korxona darajasida xavfsizlikni boshqarish, texnologik risklar va mahsulot xavfsizligi ko‘rsatkichlari chuqur ochib berilmagan.

N.S. Dexkanova oziq-ovqat sanoati korxonalarini samarali rivojlantirish jarayonlarini prognozlashtirishda yalpi mahsulot qiymati, ish haqi fondi, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni modellashtirgan [10]. Bu yondashuv ishlab chiqarish salohiyatini iqtisodiy-matematik baholash imkonini beradi. Biroq tadqiqotda xavfsizlik omillari, standartlashtirish, sanitariya nazorati va texnologik barqarorlik kabi jihatlar model tarkibiga kiritilmagan.

L.S. Azimova oziq-ovqat sanoati korxonalarini boshqarish samaradorligini boshqaruv strategiyasi va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar bilan bog‘liq holda tahlil qilgan [11]. Muallif zamonaviy texnika va texnologiyalarni jalb etish, innovatsion boshqaruvni rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv mavzu uchun muhim, chunki ishlab chiqarish salohiyatini oshirish boshqaruv qarorlarining sifatiga bevosita bog‘liq. Ammo mazkur tadqiqotda ishlab chiqarish xavfsizligini ta’minlash alohida metodologik tizim sifatida emas, balki umumiy boshqaruv samaradorligi doirasida ko‘rib chiqilgan.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda ishlab chiqarish salohiyati asosan raqobat ustunligi, strategik resurslar va operatsion samaradorlik nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Xavfsizlik masalalari esa xalqaro standartlar va HACCP tizimida keng yoritilgan. Mahalliy tadqiqotlarda oziq-ovqat sanoatining hududiy salohiyati, rivojlanish tendensiyalari va boshqaruv samaradorligi tahlil qilingan. Biroq ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish va ishlab chiqarish xavfsizligini yagona integratsiyalashgan metodologik tizim

sifatida tadqiq etish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Shu bois mazkur maqolada ushbu ikki yo'nalishning o'zaro bog'liqligini ilmiy asoslash va ularni kompleks boshqaruv mexanizmi orqali takomillashtirish muhim tadqiqot vazifasi sifatida belgilanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish va ishlab chiqarish xavfsizligi ta'minlashning metodologik jihatlarini tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullari qo'llanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon amaliyotida oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash bo'yicha talablar yil sayin kuchayib bormoqda. Xususan, mahsulotlarning xalqaro bozorlarga chiqishi uchun ularning HACCP, ISO 22000, GMP va boshqa xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu standartlar ishlab chiqarish jarayonlarida xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish orqali mahsulot sifati hamda xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, oziq-ovqat sanoati korxonalarida xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat ichki bozor ehtiyojlarini qondirish, balki tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish uchun ham muhim hisoblanadi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini samarali boshqarish va ishlab chiqarish xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun korxonalar faoliyatini kompleks tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish salohiyatining samarali boshqarilishi resurslardan foydalanish darajasi, mehnat unumdorligi, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va xavfsizlik ko'rsatkichlarining yaxshilanishi bilan namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarish salohiyati va xavfsizlikni baholashning integral metodikasi. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish samaradorligi faqat ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki resurslardan foydalanish darajasi, mehnat unumdorligi, investitsiyalar samaradorligi va xavfsizlik ko'rsatkichlari bilan ham belgilanadi. Shu munosabat bilan ishlab chiqarish salohiyatini baholash uchun quyidagi integral indeks taklif etiladi:

Integral ishlab chiqarish salohiyati indeksi

IIPS= \ sqrt [4] (MQ \times MU \times AFS \times IS)

bunda:

IIPS – integral ishlab chiqarish salohiyati indeksi;

MQ – mehnat mahsuldorligi indeksi;

MU – quvvatlardan foydalanish koeffitsienti;

AFS – asosiy fondlar samaradorligi indeksi;

IS – investitsiyalar samaradorligi indeksi.

Ushbu formulaning afzalligi shundaki, ishlab chiqarish salohiyatini bir vaqtning o'zida to'rtta muhim omil orqali baholash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida 2020-2025 yillardagi integral ishlab chiqarish salohiyati indeksi tahlili

| Yillar | MQ | MU | AFS | IS | IIPS |
|---|---|---|---|---|---|
| 2020 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| 2021 | 105 | 107 | 104 | 108 | 106 |
| 2022 | 112 | 111 | 109 | 115 | 111,7 |
| 2023 | 119 | 117 | 114 | 122 | 118 |
| 2024 | 126 | 121 | 118 | 129 | 123,4 |
| 2025 | 134 | 127 | 124 | 137 | 130 |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari va muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, integral ishlab chiqarish salohiyati indeksi 2020 yildagi 100 birlikdan 2025 yilda 130 birlikka yetgan. Bu korxonalarda investitsiyalar hajmining ortishi, ishlab chiqarish quvvatlarining modernizatsiya qilinishi va mehnat samaradorligining oshishi natijasida yuz bergan.

Ishlab chiqarish xavfsizligi darajasi koeffitsienti. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida xavfsizlik darajasini baholash uchun quyidagi koeffitsient taklif etiladi:

IXDK=\frac(XS)(JX)\times100
bunda:
IXDK – ishlab chiqarish xavfsizligi darajasi koeffitsienti;
XS – xavfsiz bajarilgan operatsiyalar soni;
JX – jami texnologik operatsiyalar soni.
Koeffitsient 100 foizga yaqinlashgan sari xavfsizlik darajasi yuqori hisoblanadi ( 2-jadval).

2-jadval
Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish xavfsizligi ko‘rsatkichlari

| Yillar | Xavfsiz operatsiyalar ulushi (%) | Aniqlangan xavflar soni | IXDK (%) |
|---|---|---|---|
| 2020 | 91 | 126 | 91 |
| 2021 | 92,8 | 118 | 92,8 |
| 2022 | 94,2 | 104 | 94,2 |
| 2023 | 95,5 | 92 | 95,5 |
| 2024 | 96,7 | 81 | 96,7 |
| 2025 | 97,9 | 69 | 97,9 |

Manba: HACCP tizimi monitoringi asosida muallif hisob-kitoblari.

Jadval natijalari xavfsizlik darajasining barqaror o‘sib borganligini ko‘rsatadi. 2020–2025’yillarda xavfsiz operatsiyalar ulushi qariyb 7 foizga oshgan bo‘lsa, xavfli holatlar soni deyarli ikki barobarga qisqargan.

Resurslardan foydalanish samaradorligi indeksi. Ishlab chiqarish salohiyatining muhim tarkibiy qismi resurslardan foydalanish darajasi hisoblanadi.
RFSI=\frac(MI)(XR)
bunda: RFSI – resurslardan foydalanish samaradorligi indeksi;
MI – mahsulot ishlab chiqarish hajmi;
XR – ishlab chiqarish xarajatlari.

3-jadval
Oziq-ovqat sanoati korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligi

| **Yillar** | **Mahsulot hajmi (trln so‘m)** | **Xarajatlar (trln so‘m)** | **RFSI** |
|---|---|---|---|
| 2020 | 63,4 | 48,5 | 1,31 |
| 2021 | 72,8 | 54,2 | 1,34 |
| 2022 | 81,6 | 59,3 | 1,38 |
| 2023 | 99,2 | 69,8 | 1,42 |
| 2024 | 103,7 | 71,9 | 1,44 |
| 2025 | 152,1 | 103,4 | 1,47 |

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari va muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Tahlil natijalari resurslardan foydalanish samaradorligi yildan-yilga yaxshilanib borganligini ko‘rsatadi. Bu ishlab chiqarish jarayonlariga energiya tejovchi va raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi bilan izohlanadi.

Ishlab chiqarish salohiyati va xavfsizlikning integratsiyalashgan samaradorlik indeksi. Tadqiqotning asosiy ilmiy yangiligi sifatida quyidagi integral ko‘rsatkich taklif etiladi:
ISHI=\frac(IIPS \times IXDK)(100)
bunda:
**ISHI** – ishlab chiqarish salohiyati va xavfsizlikning integratsiyalashgan samaradorlik indeksi 4-jadval).

4-jadval
Oziq-ovqat sanoati korxonalarida integratsiyalashgan samaradorlik indeksi

| Yillar | IIPS | IXDK | ISHI |
|---|---|---|---|
| 2020 | 100 | 91 | 91 |
| 2021 | 106 | 92,8 | 98,4 |
| 2022 | 111,7 | 94,2 | 105,2 |
| 2023 | 118 | 95,5 | 112,7 |
| 2024 | 123,4 | 96,7 | 119,3 |
| 2025 | 130 | 97,9 | 127,3 |

Manba: Muallif hisob-kitoblari.

Jadval natijalari shuni koʻrsatadiki, ishlab chiqarish salohiyati va xavfsizlik koʻrsatkichlarining bir vaqtda yaxshilanishi natijasida integratsiyalashgan samaradorlik indeksi 2020-yildagi 91 birlikdan 2025-yilda 127,3 birlikka yetgan. Bu esa oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish va xavfsizlikni taʼminlash oʻzaro bir-birini kuchaytiruvchi omillar ekanligini tasdiqlaydi.

Tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, HACCP va ISO 22000 standartlari asosida xavfsizlikni boshqarish tizimini takomillashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish va ishlab chiqarish xavfsizligini taʼminlashning nazariy, metodologik va amaliy jihatlari kompleks ravishda oʻrganildi. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqarish salohiyatining iqtisodiy mazmuni, uni shakllantiruvchi omillar, boshqaruv mexanizmlari hamda ishlab chiqarish xavfsizligini taʼminlashning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilindi. Shuningdek, oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida ishlab chiqarish salohiyati va xavfsizlik tizimi oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik ilmiy jihatdan asoslantirildi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, ishlab chiqarish salohiyati korxona faoliyatining eng muhim iqtisodiy koʻrsatkichlaridan biri boʻlib, u moddiy-texnika resurslari, mehnat salohiyati, moliyaviy imkoniyatlar, innovatsion texnologiyalar, tashkiliy boshqaruv tizimi va axborot resurslarining birgalikdagi taʼsiri natijasida shakllanadi. Ishlab chiqarish salohiyatining yuqori darajada shakllanganligi korxonalarga bozor talablariga tez moslashish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardoshlikni taʼminlash imkonini beradi. Shu bois mazkur kategoriyani boshqarish korxona strategik rivojlanishining muhim elementi hisoblanadi.

Tahlillar davomida aniqlandiki, oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatining oʻsishi koʻp jihatdan texnologik modernizatsiya, investitsiya faolligining oshishi, ishlab chiqarish quvvatlarining yangilanishi va raqamli boshqaruv texnologiyalarining joriy qilinishi bilan bogʻliqdir. Ayniqsa, raqamlashtirish jarayonlari ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish, resurslar sarfini nazorat qilish, mahsulot sifati ustidan avtomatlashtirilgan nazoratni tashkil etish va boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini bermoqda. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bir vaqtda xavfsizlik darajasini ham mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot davomida amalga oshirilgan iqtisodiy tahlillar 2020–2025-yillarda oziq-ovqat sanoati tarmogʻida ishlab chiqarish hajmi, mehnat unumdorligi va resurslardan foydalanish samaradorligida ijobiy oʻsish tendensiyalari mavjudligini koʻrsatdi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish xavfsizligi koʻrsatkichlarining yaxshilanishi mahsulot sifati va korxonalarning iqtisodiy natijalariga ijobiy taʼsir koʻrsatganligi aniqlandi. Bu holat ishlab chiqarish salohiyati va xavfsizlik tizimi oʻrtasida mustahkam funksional bogʻliqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning muhim natijalaridan biri sifatida ishlab chiqarish salohiyati va ishlab chiqarish xavfsizligini baholashning integratsiyalashgan metodologik yondashuvi ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv asosida shakllantirilgan integral koʻrsatkichlar tizimi korxonalar faoliyatini har tomonlama baholash imkonini beradi. Xususan, taklif etilgan Integral ishlab chiqarish salohiyati indeksi (IIPS), Ishlab chiqarish xavfsizligi darajasi koeffitsienti (IXDK), Resurslardan foydalanish samaradorligi indeksi (RFSI) va Integratsiyalashgan samaradorlik indeksi (ISHI) korxonalarning iqtisodiy va texnologik holatini baholashda muhim analitik vosita boʻlib xizmat qilishi mumkin.

Amalga oshirilgan hisob-kitoblar natijalariga ko'ra, ishlab chiqarish salohiyati va xavfsizlik ko'rsatkichlarini bir vaqtning o'zida yaxshilash orqali korxonalarning umumiy samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkinligi aniqlandi. Bu esa amaliyotda ishlab chiqarishni boshqarish tizimi bilan xavfsizlikni boshqarish tizimini birlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Chunki ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar xavfsizlik talablari bilan uyg'unlashtirilmagan taqdirda iqtisodiy samaradorlikning pasayishi, mahsulot sifati yomonlashishi yoki texnologik xavflar ortishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish masalalari asosan strategik boshqaruv, resurslar nazariyasi, dinamik qobiliyatlar konsepsiyasi va operatsion samaradorlik nuqtai nazaridan o'rganilgan. Ishlab chiqarish xavfsizligi bo'yicha tadqiqotlar esa asosan HACCP, ISO 22000, GMP va boshqa xalqaro standartlar talablarini amaliyotga joriy etish masalalariga bag'ishlangan. Mahalliy olimlar tomonidan esa oziq-ovqat sanoatining iqtisodiy salohiyati, investitsion jozibadorligi va rivojlanish tendensiyalari tadqiq qilingan. Biroq ishlab chiqarish salohiyati va ishlab chiqarish xavfsizligini yagona tizim sifatida baholash va boshqarish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar cheklanganligi aniqlandi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo'shliqni ma'lum darajada to'ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

-korxonalarda ishlab chiqarish salohiyatini baholashning raqamli indikatorlar tizimini joriy qilish;

-resurslardan foydalanish samaradorligini muntazam monitoring qilish va tahlil qilish mexanizmlarini takomillashtirish;

-HACCP va ISO 22000 standartlari talablarini ishlab chiqarishning barcha bosqichlariga to'liq integratsiya qilish;

-xavflarni baholash va prognozlashtirishning iqtisodiy-matematik modellaridan foydalanish;

-ishlab chiqarish jarayonlarida sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan boshqaruv texnologiyalarini keng joriy etish;

-texnologik jihozlarni modernizatsiya qilish orqali energiya va resurs tejamkorligini ta'minlash;

-xodimlarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish va xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish;

-ishlab chiqarish samaradorligi va xavfsizlik ko'rsatkichlarini baholashning yagona korporativ axborot tizimini shakllantirish.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish va ishlab chiqarish xavfsizligini ta'minlashni alohida jarayon sifatida emas, balki yagona strategik boshqaruv tizimining o'zaro bog'liq elementlari sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv korxonalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, mahsulot sifati va xavfsizligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda milliy va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini beradi.

Umuman olganda, tadqiqotda ishlab chiqilgan nazariy xulosalar, metodologik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish hamda ishlab chiqarish xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin. Ularning amaliyotga tatbiq qilinishi tarmoq korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, mahsulotlar sifati va xavfsizligini ta'minlash, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va eksport salohiyatini kengaytirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni korxonalarning raqamli transformatsiyasi, «Industry 4.0» texnologiyalarining oziq-ovqat sanoatiga ta'siri, xavflarni sun'iy intellekt asosida prognozlashtirish, ishlab chiqarish salohiyatini baholashning ko'p omilli ekonometrik modellarini ishlab chiqish va barqaror rivojlanish mezonlari bilan bog'liq holda davom ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa oziq-ovqat sanoati korxonalari boshqaruvining yangi ilmiy paradigmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press, 1985.
2. Ansoff H.I. Strategic Management. London: Macmillan, 1979.
3. Barney J.B. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage. Journal of Management, 1991, Vol. 17, No. 1, pp. 99–120.
4. Teece D.J., Pisano G., Shuen A. Dynamic Capabilities and Strategic Management. Strategic Management Journal, 1997, Vol. 18, No. 7, pp. 509–533.
5. Slack N., Brandon-Jones A., Burgess N. Operations Management. 10th ed. Pearson, 2022.
6. Heizer J., Render B., Munson C. Operations Management: Sustainability and Supply Chain Management. 13th ed. Pearson, 2020.

7. Codex Alimentarius Commission. General Principles of Food Hygiene CXC 1-1969. FAO/WHO, revised edition, 2022.
8. ISO 22000:2018. Food safety management systems: Requirements for any organization in the food chain. International Organization for Standardization, 2018.
9. Umarov I.Yu. O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish salohiyati. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, 2018, №6.
10. Dexkanova N.S. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini samarali rivojlantirish jarayonlarini prognozlashtirish modeli. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, 2021, №5.
11. Azimova L.S. Oziq-ovqat sanoat korxonalarini boshqarish samaradorligi: boshqaruv strategiyasi va uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. "Iqtisodiyot va ta'lim", 2023, №1.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 7/1**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz